

Semantik afaziya

Semantik afaziya (SemA). Semantik afaziyaning asosiy belgisi soʻzlarni bir-biriga bogʻlanishi, yaʼni konstruktsiyasining buzilishidir. Bunda artikulyator va akustik buzilishlar kuzatilmaydi. K. Goldshteyn (1948) afaziyaning bu turini tafakkur etishmovchiligi deb atagan. Odatda, ekspressiv nutq saqlanib qoladi, bemor soʻzlashi va oddiy gaplarni tushunishi mumkin. Semantik afaziyada bemor tarkibida «ustida», «tagida», «yuqorida», «pastda», «oldida», «yonida», «dan» kabi soʻz va qoʻshimchalari boʻlgan jummalarni oʻqib tushunmaydi. Masalan, bemor «*aylana ustida xoch*», «*xoch aylana tagida*», «*tundan soʻng kun keladi*», «*pashsha fildan kichik*» kabi gaplarda farq sezmaydi. Shuningdek, «*ruchka qalamdan uzunroq*», «*Lola Ergashdan oqroq*» kabi gaplar orasidagi oʻzaro bogʻliqlikni tahlil qila olmaydi.

Bemor qalam va ruchkani koʻrsating, degan koʻrsatmani toʻgʻri bajaradi, lekin «*qalam bilan ruchkani*» yoki «*ruchka bilan kitobni*» koʻrsating, degan jummalarni tushunmaydi va bajara olmaydi.

Manba: ©Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik., 3-nashr., T.; 2019., 494b.

©Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. T.; 2021., 312b.

© Ibodullayev ensiklopediyasi., 2022 y; ©www.asab.uz